





# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

## Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo aylanmasi **6753,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **14,5 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **1087,7** mlrd. so'mni (**36,2 %** ga oshdi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5665,4** mlrd. so'mni (**11,1%** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1150,2** mlrd. so'mni (**22,4 %** ga oshdi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






### UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6753,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **14,5** % ga oshdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **83,9** % va yirik korxonalar hissasiga **16,1** % to'g'ri keldi.



### ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shaxri **25,8** % ulush bilan **1745,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

### ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **0,9** % ulush bilan **61,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	
		2021- yil Yanvar-avgust
		2022- yil Yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **5665,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 111,1 % ga oshdi. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **83,4 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (99,7 %), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,7 %), Yangiobod (98,6 %), G'allaorol (96,5 %), Forish (99,3 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalarmlrd. so'm	2021- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiyy tadbirkor lik, mlrd. so'm	2021- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	6753,2	114,5	1087,7	136,2	5665,4	111,1
Jizzax sh.	1745,8	106,7	169,3	88,9	1576,5	109,0
tumanlar:						
Arnasoy	125,0	109,1	1,4	100,0	123,7	109,2
Baxmal	1272,4	143,9	804,6	151,0	467,7	133,2
G'allaorol	468,7	112,8	16,4	151,3	452,3	111,8
Sharof Rashidov	1016,2	108,7	4,0	308,2	1012,2	108,4
Do'stlik	207,0	106,6	5,2	80,0	201,8	107,6
Zomin	904,8	112,1	75,2	242,7	829,7	106,9
Zarbdor	233,5	110,5	1,4	27,5	232,0	112,6
Mirzacho'l	165,2	113,9	1,1	24,1	164,2	116,7
Zafarobod	100,7	110,5	1,3	88,8	99,4	110,9
Paxtakor	242,9	113,0	5,6	79,1	237,3	114,1
Forish	209,9	107,7	1,4	29,7	208,4	109,6
Yangiobod	61,1	109,9	0,8	77,1	60,2	110,6

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **36,2 %** ga oshdi va **1087,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **16,1 %** ulushiga to'g'ri keladi.



### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5665,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 111,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **83,9 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,6%), Arnasoy (98,9 %), Zafarobod (98,7 %), Yangiobod (98,6 %), G'allaorol (96,5 %), Forish (99,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 16,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (9,7 %), Zomin (8,3 %), Baxmal (63,2 %) va Do'stlik (2,5 %) tumanlarida kuzatildi.







## JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2022-yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4655,4** ming so'm (2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **111,9** % ga oshdi), hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**9281,1** ming so'm), Baxmal (**7763,1** ming so'm), Zomin (**5254,6** ming so'm) va Sharof Rashidov (**4378,4** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	4 655,4	111,9
Jizzax sh.	9 281,1	102,9
tumanlar:		
Arnasoy	2 632,0	107,2
Baxmal	7 763,1	140,7
G'allaorol	2 606,6	110,4
Sharof Rashidov	4 378,4	106,7
Do'stlik	3 049,3	104,9
Zomin	5 254,6	109,3
Zarbdor	2 568,5	107,7
Mirzacho'l	3 077,2	112,0
Zafarobod	1 944,2	108,4
Paxtakor	3 117,7	110,2
Forish	2 192,9	105,9
Yangiobod	2 098,1	108,4




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2022-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1050,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **22,4** % ga oshdi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **538,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **2,4** % ga oshdi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **612,0** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **18,4%** ga oshdi) .





## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



9,2 mlrd.  
so'm

**Tuzlamalar**



163,3  
mlrd. so'm

**Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**

2022-yilning yanvar-avgust oyida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 538,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (163,3 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.



25,6  
mlrd. so'm

**Quritilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari**  
(yong'oq, bodom, pista va boshqalarni qo'shgan holda)

55,2  
mlrd. so'm



**Non va non  
mahsulotlari**

16,8  
mlrd. so'm



**Ziravorlar**

37,5  
mlrd. so'm



**Tovuq go'shti**



25,8  
mlrd. so'm

**Sut va sut  
mahsulotlari**

37,8  
mlrd. so'm



**Tuxum**

61,4  
mlrd. so'm



**Don mahsulotlari** (mosh, loviya, no'xat, guruch va boshqalar)

102,1  
mlrd. so'm



**Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-hashaklar**

3,5  
mlrd. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari** (manzarali va qishloq xo'jaligi)

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2022-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **612,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **404,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **192,8** mlrd. so'mni, otlar **11,9** mlrd. so'mni, parrandalar **2,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2022- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,1 %** ni tashkil etib, **142,9 mlrd. so‘mga** yetdi va 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **9,5 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mln. so‘m	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	142 883,4	109,5	139 101,0	109,5
Jizzax sh.	67 364,3	105,0	66 586,8	104,9
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	868,1	97,1	729,9	96,5
Baxmal	3 452,1	146,8	3 039,5	154,9
G‘allaorol	8 387,6	105,1	8 041,1	105,0
Sh. Rashidov	25 291,7	109,1	24 746,3	109,1
Do‘stlik	5 294,8	119,5	5 092,2	120,0
Zomin	10 114,7	113,0	9 714,4	113,4
Zarbdor	4 751,0	117,9	4 573,5	118,4
Mirzacho‘l	5 324,4	104,3	5 158,3	104,3
Zafarobod	2 335,3	203,8	2 196,1	216,4
Paxtakor	4 682,6	110,6	4 477,0	110,7
Forish	3 114,2	95,6	2 903,5	94,9
Yangiobod	1 902,7	241,7	1 842,5	252,3



## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1389,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,9 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **335,4** mlrd. so'mni (**13,6 %** ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1346,8** mlrd. so'mni (**15,1 %** ga oshdi) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik korxonalar

### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar








**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Paxtakor ( **394,7%**) va Mirzacho'l ( **149,9%**) tumanlarida kuzatildi.



**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1682,2	107,9	335,4	86,4	1346,8	115,1
Jizzax sh.	868,8	101,0	102,9	51,0	765,8	116,4
tumanlar:					0,0	
Arnasoy	4,6	170,4	0,03	42,9	4,5	173,6
Baxmal	164,8	119,8	127,9	115,5	36,8	137,7
G'allaorol	54,9	135,4	0,2	68,4	54,7	135,9
Sh. Rashidov	110,9	121,1	0,3	457,7	110,5	120,8
Do'stlik	142,6	99,5	63,1	85,5	79,5	114,4
Zomin	151,4	100,1	0,02	56,3	151,4	100,1
Zarbdor	24,1	125,6	0,01	69,7	24,1	125,6
Mirzacho'l	5,7	149,9	0,10	83,6	5,6	152,1
Zafarobod	12,7	122,7	0,01	6,3	12,6	125,2
Paxtakor	56,1	394,7	40,3	11 955,8	15,8	113,5
Forish	74,8	97,0	0,3	72,3	74,5	97,1
Yangiobod	10,9	150,7	0,03	37,5	10,9	151,8



## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2022- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **1346,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2021- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **15,1** % ga oshdi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **80,1** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Zomin (**99,9** %), Yangiobod (**99,7** %), G'allaorol (**99,7** %), Forish (**99,6** %), Sharof Rashidov (**99,6** %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:72-221-51-26